



XETT DAVLATI TARIXIDAN

Jumayev Jo'rabek Boboqul o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Negmurodov To'ymurod Fayzulla o'g'li

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi dunyo tarixida faoliyat ko'rsatgan Xett podsholigi haqida so'z boradi. Maqolada Xett podsholigining siyosiy tarixi, aholining ijtimoiy hayoti, qisman madaniyati, taraqqiyoti va tanazzuli haqida yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Xattusa, Kusar, Xattusilis I va Mursilis I, xett tili va akkad tili, Xett qonunlari to'plami, Telepin farmoni, Karxamesh, dengiz xalqlari.

Kichik Osiyoda mil.avv. XVIII–XII asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan Xett podsholigi o'z tarkibiga xetlar, xatlar va boshqa etnik guruhlarini jamlagan edi. Xetlar podshosi Anittas davrida Anatoliyaning ba'zi viloyatlari birlashtirilib, Nesa, Xattusas shaharlari bosib olingan. Qadimgi Xett sulolasining asoschisi — Labarna degan podsho bo'lib, uning davrida Xett podsholigi hududi kengaytirilgan. Labarnaning vorislari Xattusilis I va Mursilis I lar davrida Xett podsholigining harbiy qudrati nihoyatda oshgan, davlat poytaxti etib Xattusas shahri tanlangan.

Xett podsholigi mil.avv. XIV-asr boshlari–XIII asrlarda uzoq davom etgan urushlardan keyin Mitanni, Ugaritni o'z vassaliga aylantirgan. Podsho Mursilis II hukmronligidan boshlab Xett podsholigi bilan Misr o'rtasida Suriya uchun kurash ketgan. Mil. avv. XIII asr oxiri – XII asr boshlarida Xett podsholigi o'zaro urushlar, qaram viloyatlar va ittifoqdosh podsholiklarning ajralib ketishi tufayli inqirozga uchragan [Kabirov A. 86-91 b.].

Xetlarning tashqi siyosatida diplomatiya muhim o'rin tutgan. Ular Kichik Osiyo va Old Osiyoning ko'p davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatganlar. Bu aloqalar ko'p hollarda maxsus shartnomalar bilan mustahkamlangan. Xett arxivlarida Old Osiyoning boshqa mamlakatlari arxivlariga qaraganda, bir necha marta ko'p miqdorda diplomatik hujjatlar saqlanib qolgan. Xetlar boshqa mamlakatlar bilan davriy ravishda elchilar orqali maktublar, sovg'a-salomlar almashib turganlar. Davlatlar o'rtasidagi aloqalar sulolaviy nikoh shartnomalari bilan mustahkamlangan.



Podsho devonxonasida xalqaro aloqalarga maxsus muassasa rahbarlik qilgan. Bu yerda elchilar, tarjimonlar, mirzolar ishlagan va shartnomalar matnlari tuzilgan. Shartnomalar odatda, ikki tilda: biri xett tili, ikkinchisi akkad tilida tuzilgan. Davlatlararo shartnomalar matnlari podsho oldidagi kengashda muhokama qilingan va ularga podsholar muhrlari tushirilgan. Shartnomalar matnlari yozilgan taxtachalar mamlakatning oliy xudolari haykallari oldida saqlangan. Chunki xudolar shartnomaning bosh guvohlari sifatida kim uni buzsa, jazolash huquqiga ega bo'lganlar [Rajabov R. 124-131 b.]

Xett yozuvlarining o'qib chiqarilishi Xett davlati tarixini hujjatli manbalar asosida o'rganishga imkon berdi. Manbalar orasida eramizdan avvalgi XIV asrga oid Xett qonunlari to'plami alohida ahamiyatga ega bo'lib, Xett davlatining xo'jalik va ijtimoiy tuzumi bu to'plamda aniq ifodalangan. Bu kodeks turli vaqtlarda tuzilgan 2 qismdan iborat. Yer in'om qilishganligi haqidagi xujjatlar va kadastr yozuvlari xett mamlakatining iqtisodi to'g'risida ba'zi malumotlar beradi. Podsholardan qolgan yozuvlar masalan, Annita Telepin yozuvlari va Murshill II ning solnomalari xett davlatining tashqi siyosat tarixi uchun g'oyat katta ahamiyatga ega [www.wikipedia.uz. internet sayti].

Xett podsholarining qo'shni davlatlar va knyazliklarning podsho va knyazlari bilan tuzgan bitimlari o'sha vaqtdagi xalqaro munosabatlar to'g'risida malumot beradi. Diniy sehrli matnlar saroyda bo'ladigan bayramlar va qurbonliklarning tarifi duolar, giminlar, afsunlar, afsonlar va epik dostonlar ham qimmatli manbalar hisoblanadi. Xett davlati bilan Misr o'rtasidagi urushlar tarixi asosan Misr yozuvlari asosida o'rganilishi mumkin. Xett tarixini so'nggi davrlarini o'rganishda Ossuriya matnlari katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xett podsholari Misr Firavinlari kabi qudratli bo'lmagan eng muhim masalalar to'g'risida Tuliya oqsoqolar kengashi bilan maslahatlashi kerak bo'lgan, bazan Pankus harbiylar majlisiga ham murojaat qilgan. Uzoq davom etgan o'zaro urushlar va tez tez bo'lib turgan saroy to'ntarishlaridan keyin er.avv. XVI asr oxirlarida hukmron doirada bir qadar murosaga kelinganidan ba'zi islohotlar o'tkazilgan [Rajabov R. 137-139 b.]. Jumladan, podsho Telepin farmon chiqarib taxt vorislarining qattiq tartibini tasdiqlagan. Bu farmonga ko'ra, podsho o'lganda keyin hokimiyat uning to'ng'ich o'g'liga, agar u bevaqt vafot qilsa, undan keyingi o'g'liga o'tishi lozim bo'lgan.

Podshoning o'g'illari bo'lmagan taqdirda, hokimiyat to'ng'ich kuyovga o'tgan va hokazo. Bundan ko'rinib turibdiki, Xett monarxiyasi mustabid monarxiya bo'lmagan va Xett podsholari hech qachon Misr Firavinlari yoki Shumer-Akkad va



Bobil podsholari kabi cheklanmagan hokimiyat egasi bo'lmaganlar [www.wikipedia.uz. internet sayti].

Xetlar yozuviga to'xtaladigan bo'lsak, yozuv yaqin hududda yashagan Ashshur savdogarlaridan o'rgangan holda mil. avv. 1790-yilga kelib Xetlar markaziy shahri Kussarda o'z yozuvini yaratganlar. Shu tariqa Xetlar tarixiga kiradilar. Kichik Osiyodagi Nesa (Kanes) Purisxanda, Kussar va Xattusa kabi shaharlarni o'z ichiga olgan shahar-davlatlar paydo bo'la boshlaydi.

Har bir narsaning ibtidosi bo'lgani singari intihosi ham bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda so'nggi Xett podsholari davrida axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaliklarni hujumlari zo'rg'a qaytariladi. Axeylar tor-mor qilingandan keyin Kichik Osiyo g'arbida Ilion shahri bosib olinadi. Mil.av.XII asr oxirida Egey dengizi qirg'oqlari va orollarining "dengiz xalqlari" deb atalgan guruhlarining hujumlari natijasida Xett davlati tarix sahnasidan abadiy tushib ketdi. Markazlari Karxamesh va Melida bo'lgan so'nggi Xett podsholiklari qoldiqlari mil.avv. VIII asr oxirida Ossuriya tomonidan tugatiladi[Qodirova L. B. 67-72 b.]

Xulosa qiladigan bo'lsak, Kichik Osiyodagi qadimgi davlat hisoblanmish Xett davlati o'z tarkibiga xetlar, xatlar va boshqa etnik guruhlarini birlashtirdi. Bu davlat Old Osiyo davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan bo'lib, o'zining yozuvi, ma'lum bir boshqaruv tartiboti, madaniyatiga ega bo'lgan davlat sifatida tarixda qoldi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 2015.
- 2.Qodirova L. B. Jahon sivilizatsiyalar tarixi. Guliston. 2015.
- 3.Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 2015.
4. www.wikipedia.uz. internet sayti